

XATIRCHI TUMANI MIKROTOPONIMLARI ETIMOLOGIYASIGA DOIR

Zulfizar G'iyozova
NavDPI, talaba

Annotatsiya: *Maqolada Xatirchi tumani hududida qo'llangan mikrotoponimlar haqida so'z yuritilib, genezisi, tavsifi, nom berilishiga doir ma'lumotlar aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *geografik nom, joy nomlari, qishloq nomi, soy nomi, tepalik nomi.*

Ma'lumki, har bir joyning nomlanishi yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqodlar amalga oshirilmogda. Bolaligimiz o'tgan makonimiz haqidagi yangi ma'lumotlarni to'plash va keng jamoatchilikka yetkazish, shuningdek, vatanimiz tarixini yanada chuqurroq o'rganish ajdodlarimiz ruhini shod etishda ahamiyatlidir. Bunda yashab turgan hududimizdagi joy nomlari haqida ma'lumotlar xususida ko'plab fikrlarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Akademik D.S.Lixachyov o'z vaqtida ta'kidlagan edi: "Toponomiyaning tarixiy-madaniy merosiyiligini qayta tiklar ekanmiz, biz bu bilan xalqimizning madaniy qadriyatlarini qaytaramiz, bugundan o'tmishga va o'tmishdan bugun orqali kelajakka aloqa rishtalarini o'tkazamiz. Tarixiy nomlarni qaytarish va himoya qilish – oliyjanob ijtimoiy va madaniy vazifa!"

Darhaqiqat, joy nomlari kishilar hayotidagi muhim tarixiy voqeaning, tirikchilik o'tkazish vositalarining, siyosiy, madaniy qarashlarning, boshqa xalq, elat, qabilalar bilan bo'lgan hamkorlikning, urf-odatning, an'analarning, shuningdek, turli xil tarixiy sabablarning oqibati natijasida yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan joyga nom berish uchun o'sha hududda yashovchi keksa kishilar fikriga tayanilsa yoki o'sha joy haqida ma'lumot beruvchi adabiyotlar bilan tanishib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki joy nomlari uzoq tarixiy jarayonda shaklan o'zgarishi mumkin, ya'ni bir nom yo'qolib uning o'rniga yangi nom paydo bo'lishi mumkin.

Geografik nomlar ancha turg'un bo'lib, siyosiy-ma'muriy nomlar esa o'zgaruvchan bo'ladi. Biror o'simlik yoki hayvonga nisbat berilib atalgan joylarda hozir shu o'simlik o'smasligi, o'sha hayvon yashamasligi mumkin. Lekin biz geografik nomlarga qarab bu yerda qadimda qanday o'simliklar o'sganligi, qanday hayvonlar bo'lganligini bemalol bilib olamiz. Xuddi shunday biror qabila, urug' nomi bilan atalgan joyda hozir mazkur qabila yashamasa-da, etnonimlar orqali biz shu joyda mazkur qabila yashagan, deyishimiz mumkin.

Joy nomlari bilan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim S.Qorayevning fikricha, "O'zbekistondagi toponimlarning talay qismi turli xalqlar, qabilalar, o'zbek urug'lari va ularning mayda shoxobchalarining nomlari bilan atalgan. Nukus, qo'ng'urot, yobu, kenagas, mitan kabi urug' nomlari bilan birga asaka, boyto'ni, kal, qul, kuchukboy kabi mayday shoxobchalarning nomlari ham toponimlarda o'z aksini

topgan” . Demak, har qanday joy nomining atalish sabablari bor. Biz ham Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi Yangi yo‘l qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli ba’zi toponimlarning kelib chiqishi va etimologiyasiga to‘xtalamiz.

Yangiyo‘l—qishloq fuqarolar yig‘inining nomi. Keksalarning aytishicha, avval shu qishloq fuqarolar yig‘ini o‘rnida Bog‘chakalon qishloq fuqarolar yig‘inlari bo‘lgan. 1956-yilda ular yiriklashtirilib Yangiyo‘l qishloq fuqarolar yig‘iniga aylantirildi.

Quchchibahrin—qishloq va ariqning nomi. Aslida bu so‘z Qushchi (qabila nomi) bo‘lgan. Shu qishloq ahli suv ichadigan ariqni Quchchibahrin (“bahr”—arabcha okean, dengiz daryo ma’nolarini bildiradi) deyishgan. Hozir qishloqni ham, ariqni ham Quchchibahrin deyishadi. Shu qishloq aholisining aytishlaricha, qadimdan shu yerda Qushchi degan o‘zbek qabilasi yashab kelgan. Qishloq yonidan oqib o‘tadigan soydan ariq qazib suv chiqargan va dehqonchilik qilgan. Ariq shu qabila nomi bilan atalgan. Bu yerda arabcha bahr so‘zi bahrin shaklida ishlatilib kelingan bo‘lsa ham ajab emas. Bu fikrimizni H.Hasanovning asarida keltirilgan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Ko‘ksaroysoy — soyning nomi. Bu soy ikki xil nom bilan yuritiladi. Ko‘pchilik kishilar uni Ko‘ksaroysoy deyishsa, ayrim kishilar Bahrinsoy deyishadi. Tuman xaritasida Ko‘ksaroysoy deb yozilgan. Har qalay ikkala nom ham bir soyning nomi bo‘lib, tarixiy nuqtayi nazardan Bahrinsoy qadimiydir. Qadimda bu soyni biror nom bilan atamasdan Bahrinsoy (daryosoy) deb atashgan. Ko‘ksaroy nomi esa keyinchalik qo‘yilgan nomdir. Bu nom haqida ikki xil fikr bor. Ayrim kishilar soy yoqasida ko‘chmanchi saroy qabilasi yashagan deyishadi. Ularning aytishlaricha, bu qabilaning xalqi juda ko‘p bo‘lgan. Asta-sekin Bahrinsoy shu qabilaning nomi bilan Ko‘ksaroy yoki ko‘ksaroy deb atala boshlagan. Ayrim kishilar soyning nomi Amir Temurning Samarqanddagi saroyi Ko‘ksaroy nomiga nisbat berilib qo‘yilgan deyishadi. Bizning fikrimizcha, soy shu soy yoqasida yashagan qabila nomi bilan atalganligi to‘g‘ridir. Chunki tarixiy manbalarda yoritilishicha, ko‘chmanchi qabilarning Zarafshon vodiysining to‘g‘li yerlariga ko‘chib kelishi Amir Temur yashagan davrdan ilgari boshlangan ekan.

Kiygiztelpak—qishloqning nomi. Bu qishloqni Saroyqishloq ham deyishadi. Keksa kishilarning aytishlariga qaraganda, qadim zamonlarda shu yerga o‘zbek qabilalaridan biriga mansub bo‘lgan kishilar ko‘chib kelishgan va soy yoqasida yashay boshlaganlar. Ular yil bo‘yi boshlariga kiygizdan tikilgan telpak kiyib yurishgan. Sug‘oriladigan yerda qadimdan yashab kelgan o‘zbeklar ularni kiygiztelpaklar deb atashgan. Bizning fikrimizcha, bular aslida Saroy qabilasiga mansub bo‘lgan kishilar bo‘lgan. Bu fikrimizni M. Vahobovning asarlari ham tasdiqlaydi: ”Saroy qabilasi Buxoro, Karmana, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Jizzax rayonlarida, Qarshi va Shahrisabz tomonlarda yashaydi”.

Choshtepa—tepalik va qishloqning nomi. Choshtepa haqida xalq orasida shunday rivoyatlar bor: Emish bir boy bug‘doyni yanchib, shamolda sovurib, ikkita katta-kichik chosh qilib o‘tirganda, bir gado kelib yegulik don so‘ragan. Boy (qizg‘anch bo‘lgan ekan)

esa uni haqoratlab quvib yuboribdi. Gado duo qilgan ekan, ikki chosh bug'doy ham tepalikka aylanib qolibdi. Bu kishi aslida gado emas, balki gado qiyofasidagi Xizr ekan. Xizr haqidagi afsonalar faqat Yangiyo'l qishloq fuqarolar yig'ini hududida emas, balki butun O'zbekiston, Markaziy Osiyo xalqlari orasida ham uchraydi. Bu afsona va rivoyatlarni, albatta, xalq yaratib, ular orqali o'zlarining orzu-istaklarini ifodalashgan. Afsona yaratilganda, albatta, shu tepalik yoki toshning tashqi ko'rinishi hisobga olingan. Bundan tashqari shu xalq o'zining tirikchilik o'tkazish vositasi bo'lgan mashg'ulotiga qarab afsonalar yaratgan. Biz izohlayotgan tepa haqidagi afsonani yaratgan kishilar g'allakorlik bilan shug'ullangan. Hozir ham bu yerlar bahorkor yerlar bo'lib, lalmi bug'doy va arpa ekiladi. Umuman, tepaliklar haqida gapirganimizda, ularni tabiatning bir mo'jizasi deyish mumkin. Ammo ba'zi tepaliklar mehnatkash xalqning og'ir mehnati tufayli yaratilgan deb qaramog'imiz kerak. Chunki yerlardan foydalanish maqsadida yerdagi ortiqcha tuproqlarni bir o'ringa to'plash, ya'ni yerlarni tekislab sug'orish maqsadida, ayrimlari mudofaa ishlarida foydalanish uchun paydo bo'lgan tepaliklardir. Biz quyida ba'zi shunday balandlik bilan bog'liq nomlar etimologiyalariga to'xtalib o'tamiz.

Junnati – baland qoya tosh va uning atrofi. Bu tepalik ham Xizr haqidagi rivoyat bilan bog'liq. Juda ham baland tosh bulitlardan ham balandga bo'y cho'zgan. Atrofi turli-tuman mayda toshlar bilan to'la. Ular orasida odam va hayvon qiyofasidagi toshlar ham uchraydi. Yerli xalq Xizr va chorvador boy haqidagi rivoyatni yaratgan. Rivoyatga qaraganda, bahaybat tosh jun emish, uning atrofidagi turli-tuman toshlar esa Xizrning duosi bilan toshga aylangan boy, uning cho'ponlari va qo'ylari emish. Bu, albatta, afsona, xolos.

Bovirtepa—tepalikning nomi. To'xtalib o'tmoqchi bo'lgan tepaligimiz xalq tilida Bovirtepa deb nomlanadi. Shunday nom bilan ataluvchi bu tepalik Xatirchi tumanidagi Qosim Rahmatov fermerlar uyushmasi hududidagi "Qarg'atepa" qishlog'ida joylashgan. Tepalik nomining kelib chiqishi haqida ikki xil fikr bor. Ayrim kishilar bu nomni mifologik tushunchalar bilan bog'lab izohlaydilar. Ko'pchilik kishilar esa bu nomni Bobur nomiga borib taqashadi. Keksalarning aytishlariga qaraganda, mana shu tepalikda Zahiriddin Muhammad Boburning askarlari bilan qandaydir ko'chmanchilar o'rtasida jang bo'lgan va shu jangda Bobur lashkarlari g'olib chiqqan. Shundan buyon bu tepalik Bovurtepa (Boburtepa) deb atalar emish. Demak, yerli aholi tilida bu so'z fonetik o'zgarishga uchragan bo'lishi ham mumkin. Bizning fikrimizcha, tepaning Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog'liqligi haqiqatga yaqindir. Fikrimizni tasdiqlash uchun "Boburnoma" asaridan mana bu parchani keltirishni lozim topdik: "...Samarqand fathidan so'ng Shovdor va So'g'd va tumonot yovug'i qo'rg'onlar birar-birar manga ruju' qila boshladilar...Tengri inoyati bila Sug'd va Miyonkol qo'rg'onlari uch-to'rt oyda aksar bizga ruju' qildilar". Eng ishonchli manba hisoblangan "Boburnoma"dan keltirilgan bu dalillarga asoslanib, haqiqatdan ham 1500-1501 yillarda Bobur Shayboniixonni Buxoroga ta'qib qila borishda shu yerlarda, ya'ni Sug'd

va Miyonkol qo'rg'onlari atroflarida (Xatirchi tumanidagi "Qarg'atepa" qishlog'i hududlari nazarda tutilmoqda) jang qilgan va tepa uning nomiga qo'yilgan, deyishimiz mumkin.

Xulosa shuki, yuqoridagi kabi joy nomlarining tarixi va etimologiyasini o'rganish ajdodlarimiz yashagan davr haqidagi ko'plab ma'lumotlarni o'rganishda ahamiyatlidir. Yashab turgan hududimizdagi har bir joy etimologiyasi, tarixini bilish, ilmiy tadqiqodlar olib borish vatanimiz tarixini bugungi yosh avlodga yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimizning vatanga bo'lgan muhabbatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S. Qorayev Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? T.: 1970.
2. H.Hasanov. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan, T.: 1965.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma, T.: 1990.